

### **Egallagan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay bilish qobiliyati**

***Ibrohimov Oq’abek Maxmarajab o’g’li***

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filliali*

*Ijtomoiy ish yo’nalishi 3- kurs talabasi*

***Sabirova Surayyo Farxod qizi***

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filliali*

*Ijtomoiy ish yo’nalishi 3- kurs talabasi*

***Ilmiy rahbar: Abbasova Maftuna Subxonovna***

*Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasи o’qituvchisi P.H.D*

***Annototsiya:*** Hamma zamonalarda ta’lim va tarbiya taraqqiyotning, rivojlanishning asosiy omili sifatida qadrlab kelingan. Chunki, har bir inson hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun, avvalo, yuksak bilim, zamonaviy kasbhunar egasi bo‘lishi shart.

***Kalit so’zlar:*** ta’lim, tarbiya, nazariya, amaliy nazariya, amaliyot o’tkazish bo’yicha ko’rsatmalar.

### ***Kirish***

Prezidentimiz tashabbusi bilan ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, malakali mutaxassislar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘z samarasini bermoqda. 2022-2023-o’quv yilidan boshlab oliy talim muassasalarida olingan nazariy ilimlarni amaliyotda qo’llash dasturi yo’lga qo’yildi. Bunda har bir talabigan nazariy bilimlarini amaliyotda qo’llashi o’qituvchi va o’quvchi qanday muloqot qilishi, kiyinish va muomala madaniyati , maktab jamoasidagi boshqa edagoglar bilan tajriba almashinushi borasida bir qancha ko’nikmalarga ega bo’ladi. Talaba amaliyot chog’ida yetuk mutaxasislarning mahoratini kuzatganligi, dars o’tish taxnologiyalarini o’rganganligi ularning kelajakda

malakali kadr bo'lib yetishishida poydevor vazifasini o'taydi. Shu jumladan, o'quvchilar bilan ishlash jarayonida ta'lim va tarbiyani teng olib borishni o'rghanish bo'lajak pedagogning salohiyatini oshiradi. Chunki ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek : " Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot , yo najot – yo halokat , yo saodat – yo falokat masalasidir ". Zamonaviy dunyoda ta'lim oldiga qo'yilgan talablar o'zgargan, shunchaki, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash va larni son ko'rsatkichi bilan kifoyalanish yetarli emasligi hech kimga sir mas. Ta'lim bilan amaliyat o'rtasida chambarchas bog'liqlik bo'lishi talaba uchun oliy ta'lim muassasasida olgan bilimlari amaliyatda tayanch bo'lishi va bu bilimlarsiz yetuk mutaxassis bo'la olmasligi oddiy qoidaga , zarur ehtiyojga aylanishi lozim.

Nazariya — biror hodisa va faktlarni izohlovchi va bashorat qila biluvchi bilimlar tizimi, sxemasidir. Nazariyalar ilmiy uslub vositasida yaratiladi, shakllantiriladi voqelik qonuniyatları va undagi muhim aloqalar haqida bir butun tasavvur beradigan bilim shakli. Nazariya borliqning muayyan sohasiga oid bo'lgan tajribalardan umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida kelib chiqadi. Ilmiy bilishda nazariya ning asosiy vazifasi tajribalar bergen dalillarni izohlash, shu bilan birga, narsa va hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirib borish, yuzaga keladigan yangi narsa va hodisalarni oldindan ko'ra olishdan iborat. Har qanday nazariya ilmiy bilishning natijasi sifatidagi bilish shakli bo'lsada, lekin uni tugallangan, o'zgarmas, mutlaq bilim deb qaramaslik kerak.

Nazariy bilimlarni amaliyatda qo'llash uchun quyidagi ko'nikmalar muhim bo'ladi:

1.Nazariy bilimlarni o'rghanish va tushunish: Nazariy bilimlarni o'rghanish va tushunishning asosiy qismi, chunki siz biror mavzuni tushunish uchun uning asosiy konseptlarini tushunishingiz kerak.

2.Amaliy mashqni bajarish: Nazariy bilimlarni amaliyatda qo'llash uchun, o'rghanilgan konseptlarni amaliy mashqlarda qo'llab-quvvatlash kerak. Bu sizga nazariy bilimlarni amalga oshirish va o'rghanilgan narsani tushunishga yordam beradi.

3.O'zlashtirish: O'rganilgan bilimlarni o'zlashtirish, ya'ni o'zingizga mos keladigan misollar va mashqlar yaratish juda muhimdir. Bu sizning tushunishingizni kuchaytiradi va nazariy bilimlarni amaliyatda qo'llashni osonlashtiradi.

4.Guruhda ishslash: Guruhda ishslash, boshqa insonlar bilan fikrlar almashish va bir-birlariga yordam berish imkoniyatini beradi. Bu, nazariy bilimlarni amaliyatda qo'llashda yordam bera oladi va yangi tushunishlarga yo'l ochadi.

5.Xatolarni qo'llash: Nazariy bilimlarni amaliyatda qo'llash jarayonida xatolar ko'payishi mumkin. Xatolarni qo'llash va ularga duchor bo'lish, yangi narsalarni o'rganishda juda muhimdir.

Nazariy bilimlarni amaliyatda qo'llash, nazariy fikrlarni va tushunchalarni amalga oshirish va amaliyatga asoslangan jarayonlarda ularni sinash imkoniyatini beradi. Bu, teoriyalar va konseptlarni amaliyatda sinash, sinovdan o'tkazish va ularni amalda ishlatish orqali yangi ma'lumotlar olishni ta'minlaydi. Masalan, bir necha insonlar bilan birlikda bir nazariya yoki tushunchani sinab ko'rish, u tushunchani amaliyatda sinab ko'rish, o'z fikrlarini taqozo etish va natijalarni taqqoslash imkoniyatini beradi. Bunday amaliyotlar, nazariy bilimlarni amaliy hayotda qo'llash va ularni amalda ishlatishning eng yaxshi usullarini aniqlashga yordam beradi. Amaliyatda nazariy bilimlarni qo'llash, ularni amalda ishlatish va o'rganishning samarador usullarini aniqlash uchun muhimdir. Bu jarayonlar ilmiy tadqiqotchilar, o'qituvchilar va soha mutaxassislarining yangi bilimlarni amalda ishlatish va amaliyatga asoslangan jarayonlarda ularni sinash imkoniyatini oshirish uchun keng imkoniyatlar beradi.

Amaliyot o'quv jarayonining elementi sifatida talabalar tomonidan universitetda olingan bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish maqsadida amalga oshiriladi; ishlab chiqarish sharoitida mutaxassislik bo'yicha ishslash uchun zarur amaliy ko'nikmalarni egallash; texnologiya va mehnatning ilg'or usullarini o'zlashtirish. Amaliyot talabalarning mustaqil ishini rivojlantirishga yordam beradi. Amaliyot davomida talabalar o'zlariga yuklangan vazifalar

## ***Modern education and development***

---

doirasida axborotni mustaqil tanlash va tartibga solishni o‘rganadilar; olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llash; muayyan ishlab chiqarish doirasida qo’llaniladigan texnologiya va uskunalarini o‘rganish; jamoada ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirish; o‘z-o‘zini nazorat qilish. Amaliyot orqali o‘rganish talabalar va o‘qituvchilarning ko‘p qirrali va o‘zaro bog‘liq faoliyati sifatida qaralishi kerak, bu quyidagilarga qaratilgan :

-o‘qituvchi tomonidan ma’lum bir korxona sharoitida talaba tomonidan mustaqil ravishda o‘rganilishi kerak bo‘lgan asosiy masalalar ro‘yxatini taqdim etadigan individual amaliyot dasturini ishlab chiqish;

- individual topshiriqlarni bajarish muddatlari, shu jumladan kurs ishlari va diplom loyihibalarini tayyorlash uchun faktik materiallarni to‘plash;

-talabaning o‘quv jarayonida va amaliyot davomida olingan axborotni idrok etishi, bilishi, qayta ishlashi va o‘zlashtirishi;

-universitetda olingan bilimlarni amalda sinab ko‘rish istagi;

-o‘qituvchi tomonidan o‘quvchining o‘quv axborotini o‘zlashtirishda mustaqil, ongli, oqilona, samarali faoliyatini tashkil etish, uni amaliyotda qo‘llash va mustahkamlash. Amaliyot davrida talabalar faoliyatini tashkil etish universitet kafedra rahbariyati tomonidan tasdiqlangan me’yoriy va o‘quv materiallari asosida amalga oshiriladi.

**Xulosa:** Amaliyotni o’tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar. Har bir talabani ushbu uslubiy ishlanmalar bilan ta’minlash o‘qituvchiga bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini bilvosita nazorat qilish, o‘quvchilarni bilim olish uchun etarli darajada o‘zini o‘zi boshqarish va o‘z-o‘zini boshqaradigan kognitiv faoliyatga jalb qilish va ular asosida kafolatlangan ko‘nikmalarni amalda qo‘llash imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Практикум Социального Работника 2015 й

2. Козлов А. А., Иванова Т. Б. К Практикум социального работника.

Серия

«Учебные пособия». — Ростов-на-Дону: «Феникс», 2001.

3.Ijtimoiy ishda praktikum O'quv qo'llanma

4. Internet saytlari